



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies

SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

YUMSHOQ VA AQLLI KUCH: ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLARDAGI TASHQI SIYOSAT STRATEGIYALARI SIFATIDA

Adhamjon Mamadjonov

Tayanch doktorant,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Email: baxtiyorovich91@bk.ru

MA QOLA HA QIDA

Kalit so‘zlar: Xalqaro munosabatlar, tashqi siyosat, realizm, idealizm, liberalism, neoliberalism, qattiq kuch, yumshoq kuch, aqli kuch, Jozef Nay.

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Soft Power”– yumshoq kuch va “Smart Power”– aqli kuch konsepsiyanining mazmun-mohiyati va uning zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o‘rni borasida fikr yuritilgan. Ushbu konsepsiyanı tushunish juda tez o‘zgarib borayotgan va inqirozlar qaytadan avj olayotgan zamonda ayniqsa dolzarb. Darhaqiqat, insoniyat so‘nggi ellik yillik tarixi davomida juda katta o‘zgarishlarni boshdan kechirdi, bu o‘zgarishlar taraqqiyot bilan bir qatorda global tizimni yuzaga keltirdi. Shu nuqtayi nazardan mavzu obyekti sanalgan kuch, kuch konsepsiysi va uning ta’sir etish vositalarini chuqurroq tahlil etish muhim sanaladi.

O‘zgarishlar konteksiida zamonaviy paradigmalar klassik paradigmalarning ilmiy ustunligini shubha ostiga qo‘ygani holda, davlatlar tashqi siyosiy yondoshuvlarida islohotini taklif qilib, ko‘proq yumshoq kuch va uning evolutsiyasi sanalgan aqli kuchga e’tibor qaratishni taklif qilmoqda. Maqolada dastlab kuch tushunchasiga to‘xtalib, so‘ngra qattiq, yumshoq va aqli kuch konsepsiyanining nazariy yondashuvlari tahlili amalga oshirilgan.

Tahlil davomida mamlakatlar qattiq va yumshoq kuch elementlarini strategik jihatdan birlashtirib, jahon sahnida o‘z manfaatlarini yanada samarali va barqaror tarzda amalga oshirishlari mumkinligi ochib berilgan. Shuningdek, aqli kuchning ilmiy muhokamasida ushbu konsepsiyaning turli jihatlarini o‘rgangan taniqli olimlarning asarlariga murojaat qilingan. Ularning ilmiy xulosalaridan foydalanilgan holda, xalqaro munosabatlardagi o‘zaro bog‘liqlik jarayonlari chuqur o‘rganilgan va tahlil jarayonida konsepsiya mohiyatini

ochib berishga harakat qilingan.

SOFT AND SMART POWER: FOREIGN POLICY STRATEGIES IN CONTEMPORARY INTERNATIONAL RELATIONS

Adhamjon Mamadjonov

Foundation PhD student,

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: International relations, foreign policy, realism, idealism, liberalism, neoliberalism, hard power, soft power, intelligent power, Joseph Nye.

Abstract: This article discusses the essence of the concept of "Soft Power" and "Smart Power" and its role in modern international relations. Understanding this concept is especially relevant in times of rapid change and resurgence of crises. Indeed, during the last fifty years of its history, humanity has undergone enormous changes, which, along with development, have created a global system. From this point of view, it is important to analyze the power, the concept of power and the means of its influence, which is the object of the subject.

In the context of changes, modern paradigms question the scientific supremacy of classical paradigms, proposing reform of foreign policy approaches of states and focusing more on soft power and smart power, which is its evolution. The article first focuses on the concept of power, and then analyzes the theoretical approaches of the concepts of hard, soft and smart power.

During the analysis, it was revealed that countries can strategically combine the elements of hard and soft power and realize their interests on the world stage in a more effective and stable way. Also, in the scientific discussion of intelligent power, the works of famous scientists who studied various aspects of this concept are referred to. Using their scientific conclusions, interdependence processes in international relations were studied in depth, and in the process of analysis, an attempt was made to reveal the essence of the concept.

МЯГКАЯ И УМНАЯ СИЛА: ВНЕШНЕПОЛИТИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИИ В СОВРЕМЕННЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Адхамжон Мамаджонов

Докторант,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые	слова:	Аннотация: Настоящая статья анализирует
Международные	отношения,	сущность и значение концепций "Мягкая сила" и "Умная

внешняя политика, реализм, идеализм, либерализм, неолиберализм, твердая сила, мягкая сила, умная сила, Джозеф Най.

"сила" в контексте их роли в современных международных отношениях. Понимание этих концепций стремительно развивается, особенно в период динамичных изменений и вызовов, особенно на глобальном уровне. Действительно, за последние пятьдесят лет человеческой истории произошли значительные изменения, поднимая мир на более высокий уровень вместе с прогрессом. С этой точки зрения, изучение виртуальной силы, концепций силы и тщательный анализ их инструментов становятся важными аспектами.

В свете этих изменений современные парадигмы предлагают корректировки во внешней политической ориентации государств, подвергая сомнению научное превосходство классических парадигм. Эти корректировки предлагают переосмысление стратегий внешней политики, с акцентом на растущей роли мягкой силы и ее эволюции в сторону умной силы. Статья начинается с базового понимания силы, последовательно погружаясь в теоретические рамки концепций твердой, мягкой и умной силы.

На протяжении анализа акцент делается на стратегическом соединении элементов твердой и мягкой силы, подчеркивая потенциал государств для эффективного продвижения своих интересов на мировой арене. Кроме того, в статье используются академические дискуссии выдающихся ученых, которые глубоко изучили различные аспекты этих концепций. С использованием их научных выводов проведено всестороннее исследование взаимосвязанных процессов в международных отношениях, что в конечном итоге способствует более глубокому пониманию сущности этих концепций.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv sharoitida davlatlar maqsadlariga erishish uchun ta'sir va majburlash usullaridan foydalanishi haqidagi g'oya yangilik emas. Biroq, davlat manfaatlari yo'lida o'zлari ko'rmasliklari mumkin bo'lgan imkoniyatlarni ko'rsatgan holda, ularni qilmasligi mumkin bo'lgan ishni qilishga ishontirish qobiliyati – bu yumshoq kuch konsepsiysi. Ushbu nazariya dastlab amerikalik professor Jozef Nay tomonidan ishlab chiqilgan. J.Nay "yumshoq kuch" hamda "aqli kuch"ni o'rganish bo'yicha tan olingan yetakchi olim bo'lib, yumshoq va aqli kuch iboralarini ilmiy muomalaga tadbiq etgan. Uning "The Future of Power" nomli kitobida hokimiyatning katta strategiyasi va taktik operatsion jihatlari hamda uning namoyon bo'lishi keng tahlil qilinadi. Konsepsiyanı yanada soddalashtirish uchun muallif yumshoq kuch spektrining ishonch, jalg etish kabi ta'sir vositalaridan iborat, qattiq kuch esa ko'pincha

davlatning harbiy yoki iqtisodiy ta'sir vositalaridan foydalanish yoki shantajlar tahdidi hokimiyatning majburlash tarkibiy qismidir deydi¹.

Mamlakatning yumshoq kuchi uning madaniy jozibasi, ta'lim tizimi va global imidjiga bog'liq. Ushbu sohalarga sarmoya kiritish xalqaro maydonda uzoq muddatli ta'sir va barqarorlikka hissa qo'shadi. Yumshoq kuchning barqarorlik konsepsiyasini Jozef Nay, Robert Kahone² kabi olimlarning ishlari orqali o'rganish mumkin, u davlatning yumshoq kuchiga hissa qo'shadigan omillar va uning uzoq muddatli ta'sirini muhokama qiladi.

Jahon tartibotini yaratishda davlatlar o'z xohish-istiklariga erishish uchun tahdid va sanksiyalardan ham muhimroq bo'lgan yumshoq kuchning jozibador yo'llari orqali boshqalarni o'zlariga jalb qilishni afzal ko'rmoqdalar.

"Yumshoq kuch" ko'pincha ikkita qarama-qarshi ijtimoiy stimulga olib keladi. Birinchisi, rivojlanishda katta muvaffaqiyatlarga erishgan va yuksak turmush darajasiga ega bo'lgan tashqi dunyo qadriyatlariga ergashishni anglatadi. Aholi migratsiyasi aynan shu tariqa yuzaga keladi, bunda odamlar sifatli ta'lim, ishda muvaffaqiyat qozonish va farovon hayot kechirishga intilishadi. Ikkinci stimul, o'z ideallarining afzalligini qat'iy himoya qiladigan jamiyatdagi kayfiyat bilan bog'liq. Ikki yo'nalishda ham uzlusiz kurash boradi: birinchisi – o'z yurtida o'z an'analarini saqlab qolish; ikkinchisi – o'z g'oyalarini xalqaro hamjamiyatda tarqatishni maqsad qiladi.

J.Nay ushbu tendensiyadan kelib chiqqan holda, kuchning ikki shaklini uyg'unlashtirish g'oyasini taklif qildi, bunday uyg'unlashtirish "Aqli kuch" (Smart Power) deb nomlandi. Aqli kuch g'alaba qozonish strategiyasini shakllantirish uchun yumshoq va qattiq kuchlarni muvofiqlashtirish va birlashtirish qobiliyati deya ta'riflangan³. Aqli kuch, aslida, harbiy kuch va diplomatik vositalardan birga foydalanishni o'z ichiga oladi⁴. Agar ikkala kuch maxsus kesishmada birlashtirib va ushbu formula dunyodagi ba'zi murakkab munosabatlarga nisbatan qo'llanilsa hamda kerakli natijalarga erishilsa, ana o'sha natijadorlik aqli kuchni hosil qiladi.

Aqli kuch global aktorning mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda xalqaro tizimda moslashishiga imkon beradigan mexanizmdir. Aqli kuch turli rejalarini amalga oshirishda mos keluvchi usullar tanlashda mustaqillikka ega bo'lib, ba'zan qattiq choralarsiz zaif hisoblanadigan yumshoq kuchning muqobili ham sanaladi⁵.

2006-yilda AQSHning mashhur Strategik va xalqaro tadqiqotlar markazida (The Center for Strategic and International Studies CSIS) tashkil etilgan aqli kuch strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha komissiya tomonidan tayyorlangan "Aqliroq, xavfsizroq Amerika" (A Smarter more Secure America) deb nomlangan hisobotiga ko'ra, AQSH o'zining global ustunligini saqlab qolish uchun kuch konsepsiyasini o'zgartirishi lozimligi, uning manfaatlarini bugungi xalqaro maydonda faqat harbiy kuch bilan ta'minlash mumkin emasligi ta'kidlanadi⁶. Shu nuqtayi nazardan, AQSHda harbiy kuchni ikkinchi o'ringa qo'yib, qattiq kuch va yumshoq kuchning

¹ Joseph Nye. The Future of power. 13.12.2011

² Robert O. Keohane. "Neorealism and Its Critics" "Soft Power: The Means to Success in World Politics". 1984

³ Nye, Joseph S. Jr.. "In Mideast, the Goal is 'Smart Power'." The Boston Globe, August 19, 2006. pp. 50-62

⁴ Сюн Лепин., Высшее образование как инструмент «мягкой силы» России и Китая: дис. ... кан. полит. наук. – М., 2018. С. 98

⁵ Ilan Goldenberg., It's Time to Stop Talking About Soft Power. The American Prospect. 05.29.2008. pp. 30-42 <https://prospect.org/article/time-stop-talking-soft-power/>

⁶ Emine Akçadağ, ABD'nin Kamu Diplomasisi Stratejisi : Akıllı Güçü. Kamu Diplomasisi Enstitüsü Araştırmacısı. CSIS Commission on Smart Power:A Smarter More Secure America, 2007, S. 7-11

birgalikda ishlatishini ko‘zda tutuvchi aqli kuch strategik konsepsiysi birinchi o‘ringa chiqarildi.

Qattiq kuch, yumshoq kuch, aqli kuch loyihalari Los-Anjelesdagi Janubiy Kaliforniya universiteti qoshidagi Annenberg aloqa maktabidagi Jamoat diplomatiyasi markaziga asoslangan tashabbusdir. Uning maqsadi yuqori darajali siyosatchilarga harbiy harakatlar kabi majburiy kuch aktivlari va vositalarini an’anaviy hamda ommaviy diplomatiya resurslari bilan yaxshiroq integratsiyalash imkonini beruvchi milliy hokimiyatga innovatsion yondashuvni ishlab chiqishdan iborat. Loyihada blog (www.smartpowerblog.org) va atamalar lug‘ati, bibliografiyalar va ommaviy szenariy ishlab chiqilayotgan doimiy tadqiqot dasturi mavjud⁷. Samarali aqli kuch uchun to‘g‘ri tarkibiy qismlarni aniqlashning siri – bu tegishli vaziyat, holat va munosabatlar uchun mos kesishmani topishdir. Qattiq va yumshoq kuchning to‘g‘ri kombinatsiyasini qanday amalga oshirish mumkin degan savolga J.Nay yumshoq va qattiq kuchni birlashtirish uchun, ushbu tushuncha chuqurroq tahlil va asosni talab qilgani holda, unga amaliy qo‘llaniladigan “Spektral kuch” tizimini ishlab chiqish orqali erishish mumkinligini tushuntiradi⁸.

Aqli kuchni, soddarоq aytganda, qattiq va yumshoq kuchlarning samarali kombinatsiyasi sifatida aniqlash ham mumkin. Bu–Amerikaning maqsadlariga erishish uchun ham qattiq, ham yumshoq kuchlar bilan yaxlit strategiyani ishlab chiqishni ham anglatadi. Aqli kuch – bu kuchli harbiy tuzilma zarurligini ta’kidlaydigan, shu bilan birga Amerika ta’sirini yoyish va AQSH tashabbuslariga huquqiy maqom berish uchun ittifoqlar, hamkorlik kelishuvlari va institatlarga katta mablag‘ sarflaydigan yondashuvidir⁹.

2003-yilda Jozef Nay tomonidan ishlab chiqilgan va keyinchalik siyosatchilar va akademiklar tomonidan qabul qilingan aqli kuch konsepsiysi qattiq kuch elementlarini yumshoq kuchga xos harakatlar bilan uyg‘un hamda ko‘pincha nozik birlashtirgan yanada samarali va muvaffaqiyatli natijalarga erishish imkonini beradigan aqli siyosatni qabul qilishni talab qiladi¹⁰.

Giulio Gallarotti, qattiq va yumshoq kuch o‘rtasidagi tub farqni quyidagicha tushuntiradi: qattiq kuch asosan hokimiyatning moddiy resurslariga – to‘g‘ridan to‘g‘ri tayanish orqali bo‘ysunishga majbur qiladi; yumshoq kuch esa uni mamlakatlarni boshqa mamlakatlar uchun jozibador qiladigan siyosat, fazilatlar va harakatlar orqali rivojlantiradi – bilvosita va zo‘ravonliksiz. Shu munosabat bilan qattiq kuch yumshoq kuchga nisbatan ko‘proq manfaatlar to‘qnashuvini ko‘rsatadi. Qattiq kuch mamlakatlarni boshqa mamlakatlarni, odatda, bajarmaydigan ishlarni qilishga majburlashini o‘z ichiga oladi. Yumshoq kuch esa mamlakatlarni ixtiyoriy ravishda yumshoq kuch mamlakatlari xohlagan narsani qilishga undaydi¹¹.

⁷ Brito Brígida, "Hard, soft or smart power: conceptual discussion or strategic definition?". Notes and Reflections, JANUS.NET e-journal of International Relations, N.º 1, pp. 112-114. Autumn 2010. Consulted [online] on date of last visit, observare.ual.pt/janu.

⁸ Emine Akçadağ, ABD’nin Kamu Diplomasisi Stratejisi : Akıllı Güçü. Kamu Diplomasisi Enstitüsü Araştırmacısı. CSIS Commission on Smart Power:A Smarter More Secure America, 2007, S. 7-11

⁹ Nye, Joseph. Get Smart: Combining Hard and Soft Power. Foreign Affairs. April 27.2023. pp - 63-66. DOI - 10.1007/978-981-99-0714-4_8

<https://www.researchgate.net/publication/370311554> Get Smart Combining Hard and Soft Power

¹⁰ Nye, Joseph. Public Diplomacy and Soft Power.

¹¹ Giulio M Gallarotti. "Smart Power: Definitions, Importance, and Effectiveness". Journal of Strategic Studies, special issue on "Smart Power and the Military" edited by Alan Chong (forthcoming) Vol. 38 Issus 3. P. 245-281. April 16, 2015. DOI. <https://doi.org/10.1080/01402390.2014.1002912>

http://works.bepress.com/giulio_gallarotti/39/

Ushbu yangi konsepsiya aqli harakat qilish, muayyan ehtiyojlarga asoslangan harakatlarni belgilash muhimligini ta'kidlaydi: bular – milliy va xalqaro mavqe, madaniy xususiyat, siyosiy tizim, iqtisodiy qudrat. Biroq, boshqa har qanday oldingi modelga qaraganda, u strategik o'lchovni o'z ichiga oladi, chunki u inkluziv harakatlarga asoslangan, global sheriklik tushunchalariga aralashishning turli darajalarida hamkorlikni shakllantirishga majbur qiladi va har xil ishtirokni qadrlaydi. Yumshoq kuchning ba'zi tamoyillariga rioya qilgan holda, aqli kuch harbiy kuchlarni ommaviy joylashtirishdan qochadi va mojarolarni hal qilishda diplomatik yondashuvni qo'llaydi. Bu yangi imkoniyatlarni rivojlanadirish va integratsiyalashgan barqaror strategiyalarni qayta belgilash uchun sharoit yaratadi, chunki ular avtonomiyanı yaratadi. Xalqaro miqyosda aqli kuch konsepsiysi qo'llab-quvvatlanib, siyosatchilar, akademiklar va strateglarning e'tiborini tortmoqda¹². Globallashuv sharoitida aqli kuch konsepsiysi xalqaro munosabatlar sohasida keng muhokama qilinayotgan bo'lsa-da, nazariy ishlab chiqishlar konsepsiya mohiyatini to'liq ochib bermadi.

Ushbu konsepsiyaning tag zamirida qattiq va yumshoq kuchni muvozanatlashdan hosis bo'lgan "oltin o'rtalik" yotadi. Aqli kuch samarali tashqi siyosat uchun harbiy va iqtisodiy, madaniy va diplomatik ta'sir kombinatsiyasi muhim ekanligini tan oladi. Qattiq va yumshoq kuch tushunchalari atrofidagi munozara yaqinda paydo bo'limgan va akademik hamjamiyat tomonidan xalqaro munosabatlarning ilmiy sohalarida tematik uchrashuvlarda ko'p o'r ganilgan. Bir qancha mualliflar, jumladan, taniqli professor Jozef Nay, Jenis Beyli Mattern va Judah Grunshteyn kaibi olimlar bu tushunchalarni real misollar asosida batafsil tahlil qilishgan. Bu konsepsiyanı bir necha kontekstlarda qarab chiqish uning mazmun va mohiyatini ochib berishda muhim ro'l o'ynaydi.

"Smart Power" global muammolarga javob berishi uchun *kelishish va moslashuvchanlik* konteksiда muayyan strategiya va maqsadlarni hisobga olgan holda, mavjud vaziyat uchun eng mos vositalarni tanlay olish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Tashqi siyosatdagi moslashuvchanlik va egiluvchanlik haqidagi ilmiy munozaralarni Robert Keohane¹³ va Jozef Nay¹⁴ kabi nazariyotchilarning ishlarida topish mumkin. Ularning tadqiqotlari davlatlar o'z strategiyalarini rivojlanayotgan global geosiyosatga moslashtirish zarurligiga urg'u beradi.

Ittifoq va hamkorliklarni yo'nga qo'yish kontekstida, diplomatik hamkorlik va ittifoqlar tuzish aqli kuchning muhim tarkibiy qismidir. Boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ijobjiy munosabatlarni rivojlanirish orqali mamlakat o'zining global ta'sirini kuchaytirishi va umumiy muammolarni birgalikda hal qilishi mumkin. Xalqaro munosabatlarda alyanslar va ko'p tomonlama hamkorlikning o'rni haqida Stiven Uolt ilmiy qarashlarida ittifoqlarning mamlakat tashqi siyosati va global ta'sirini shakllantirishdagi ahamiyatini muhokama qiladi¹⁵.

Diplomatik munosabatlar konteksiда, xalq diplomatiyasi va ommaviy diplomatiya aqli kuchning asosiy jihat bo'lib, madaniy almashinuv dasturlari, ommaviy axborot vositalarini jaib qilish va boshqa aloqa shakllari orqali xorijdagи jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazish sa'y-harakatlarini o'z ichiga oladi. Mamlakat haqidagi ijobjiy tasavvurlar uning yumshoq kuchiga

¹² Brito Brígida, "Hard, soft or smart power: conceptual discussion or strategic definition?". Notes and Reflections, JANUS.NET e-journal of International Relations, N.º 1, pp. 112–114. Autumn 2010. Consulted [online] on date of last visit, observare.ual.pt/janu.

¹³ Robert O. Keohane, "Neorealism and Its Critics". Columbia University Press. June 1986. 378 p. <https://cup.columbia.edu/book/neorealism-and-its-critics/9780231063494>

¹⁴ Nye, Joseph. "Soft Power: The Means to Success in World Politics". 2004

¹⁵ Stephen M. Walt., The Origins of Alliances., Cornell Studies in Security Affairs. 1987 <https://www.jstor.org/action/doBasicSearch?Query=rt%3A%22The+Origins+of+Alliances%22>

hissa qo'shishi mumkin. Aqlli kuchning tarkibiy qismi sifatida xalq diplomatiyasini Nikolas Kall xalqaro tasavvurlarni shakllantirishda aloqa va madaniy almashinuvning roli juda muhim ekanligini ta'kidlaydi¹⁶.

Iqtisodiy boshqaruv, savdo kelishuvlari, iqtisodiy yordam va investitsiyalar kabi iqtisodiy vositalar aqlli kuchda muhim rol o'ynaydi. Iqtisodiy resurslardan foydalanish hamkorlik uchun ijobjiy turki yaratishi va boshqa xalqlarning xatti-harakatlariiga ta'sir qilishi mumkin. Iqtisodiy davlat boshqaruvi va uning xalqaro munosabatlardagi roli Robert Gilpin va Robert Keohane kabi olimlar tomonidan muhokama qilingan. Ular ilmiy tadqiqotlarida iqtisodiy vositalarning davlat boshqaruvi va tashqi imidjiga ta'sir qilish usullarini o'rganadi¹⁷.

Texnologiya va axborot urushi, zamonaviy xalqaro munosabatlarda texnologiya, axborot va kiber imkoniyatlardan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aqlli kuch ushbu vositalardan strategik ustunlik uchun foydalanishni va ular yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf hamda muammolarni tan olishni o'z ichiga oladi. Globallashuv jarayoni bu – IT va xalqaro munosabatlarning uyg'unligi o'sib borayotgan–xodisadir. Jozef Nay va Tomas Rid¹⁸ kabi mualliflar, texnologiya va axborot urushining davlat hokimiyati kontekstidagi oqibatlarini o'rganib, uning mohiyatini olib berishga harakat qilishgan.

Gumanitar yordam kontekstida, aqlli kuch insonparvarlik yordami va tabiiy ofatlarga yordam berish majburiyatini o'z ichiga oladi. Inqiroz davrida yordam ko'rsatish nafaqat odamlarning azob-uqubatlarini bartaraf etadi, balki mamlakatning nufuzi va ta'sirini oshiradi. Ijtimoiy yordamning davlat obro'si va tashqi imidjiga ta'sirini Maykl Barnett va Tomas Vayss¹⁹ kabi olimlar o'rganib, tezislarida xalqaro munosabatlarning gumanitar o'lchovlarini muhokama qilishadi.

Boshqariladigan xaos konteksida, aqlli kuch inqirozlarni boshqarishda ayniqla dolzarbdir. Faqat harbiy kuchga tayanish o'miga, diplomatik, iqtisodiy va boshqa noharbiy vositalarni o'zida mujassam etgan kompleks yondashuv mojarolarni hal qilish va barqarorlikni ta'minlashda samaraliroq bo'lishi mumkin. Inqirozlarni boshqarish va mojarolarni hal qilishda kompleks yondashuvlardan foydalanish Paul Diehl²⁰ va Jeyms N.Rosenau²¹ kabi olimlarning ilmiy ishlarida muhokama qilingan.

Global boshqaruv va *ko'p vektorlik* ham aqlli kuchning asosiyligi vositalaridan biri sanaladi. Global boshqaruv va *ko'p* tomonlama institutlarni qamrab olish aqlli kuch strategiyasidir. Xalqaro tashkilotlar orqali boshqa davlatlar bilan hamkorlikda ishslash umumiy muammolarni hal qilishga ko'maklashib, barqarorlikka yordam beradi. Global boshqaruv va *ko'p vektorlik* nazariyasi Anne-Mari Slaughter²² va Jon Ruggi²³ kabi olimlar tomonidan keng ko'lamda

¹⁶ Cull, Nicholas J.Cull. "Public Diplomacy: Lessons from the Past"., 1995.

¹⁷ R.Keohane, R.Gilpin."The Political Economy of International Relations". 1987

¹⁸ Tomas Rid., "Cyber War Will Not Take Place". 2013.

¹⁹ Barnett & Weiss., Humanitarianism in Question: Politics, Power, Ethics. Edited by Michael Barnett and Thomas G. Weiss. 2008., https://www.researchgate.net/publication/269943571_Humanitarianism_in_Question

²⁰ Diehl, Paul F., ed., 2005. War (Sage Library of International Relations). London: Sage. xxxviii + 2536 pp. ISBN DO - 10.1177/00223433070440020703, JO - Journal of Peace Research - J PEACE RES

²¹ James N. Rosenau., Governance without Government Order and Change in World Politics. Cambridge University Press. Online publication date: October 2009. Print publication year:1992

²² Anne-Marie Slaughter. A New World Order. Copyright Date: 2004. Published by: Princeton University Press Pages: 368. <https://www.jstor.org/stable/j.ctt7rqxg>

²³ John Gerard Ruggie Multilateralism: the anatomy of an institution. Published online by Cambridge University Press: 22 May 2009. International Organization , Volume 46 , Issue 3 , Summer 1992 , pp. 561 – 598 <https://doi.org/10.1017/S0020818300027831>

o‘rganilib, ular global siyosatni shakllantirishda xalqaro institutlarning ahamiyatini tadqiq qilishgan.

Aytish mumkinki, tez fursatda kuch konsepsiyaning bu shakllarda o‘zgarib borishi zamonaviy xalqaro munosabatlar maydonida yuz berayotgan o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq. Bugungi kunda global axborotlashgan tizimning ommalashib borishi, geoaxborot makonining shakllanishiga, bu esa – o‘z navbatida, mazkur sohada yagona yetakchilik uchun kurashni keltirib chiqarmoqda.

So‘nggi yillarda davlatlar o‘zlarining tashqi siyosiy maqsadlariga erishish uchun aqli kuchga murojaat qilishlari sababli ushbu konsepsiya qiziqishlari ortib bormoqda. Aqli kuchni muvaffaqiyatli qo‘llash an’anaviy ravishda erkin bozorga ega, qudratli va demokratik davlatlar tashabbusi bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda ko‘proq avtoritar, yopiq davlatlar, shuningdek, yangi inqilobiy davlatlar va demokratiyaga o‘tish jarayonini boshdan kechirayotgan davlatlarda ham undan foydalanishga kirishildi. Misol uchun, Xitoy rahbariyati iqtisodiy va harbiy yuksalish davrida qattiq kuchning aqli tomoniga moliyalashtirishni ko‘paytirish zarurligiga e’tibor qaratmoqda. Qo‘shma Shtatlar sobiq davlat kotibi Xillari Clinton Davlat departamentiga kelgan birinchi kundan boshlab barcha imkoniyatlarni aqli kuch dasturlariga qarata boshlagan edi²⁴.

Hubertus Xoffmanning fikriga ko‘ra, tinchlikni yaratish va saqlash ushbu jarayonlarda ishtirok etuvchi turli o‘yinchilarning harakatlarini boshqaradigan o‘z dasturlariga amal qiladi. Bu dasturlar quyidagilarni nazarda tutadi: 1) birinchi navbatda, keskinlik va mojaro holatlarida xarajat-muvaffaqiyat munosabatlarini aniqlash; 2) faoliyatni joylashuvga yo‘naltirish, mahalliy o‘yinchilar bilan hamkorlikni belgilash va avtonomiyanı mustahkamlash; 3) ikki tomonlama strategiyalarni, shu jumladan qattiq va yumshoq kuchning harakatlarini ishlab chiqish; 4) tahlilning radikallahuviga yo‘l qo‘ymaslik va oldingi xatolarni kelajakda ularning oldini olish chorasi sifatida tan olish; 5) joylarda, asosan, fuqarolik darajasida innovatsion va muqobil xarakterga ega bo‘lgan yechimlarni topish maqsadida muloqot va munozaralarni ochish; 6) bag‘rikenglik va hurmat orqali insoniylik hamda inson huquqlarini qadrlashni qo‘llash²⁵. Xoffman aqli deb ta’riflagan yondashuv orqali imkoniyatlarni diversifikatsiya qilish, aqli kuch deb atalgan konsepsiya g‘oyasiga yaqin²⁶.

Aynan shu ma’noda kontseptual munozara, asosan, yuqorida aytib o‘tilgan tushunchalarning (qattiq va yumshoq kuch) strategik jihatdan aniq holatlarga nisbatan qo‘llanilgan foydalari va xavflarini hisobga olgan holda, yangi tushuncha paydo bo‘ladi: aqli kuch bu – ikki oldingisining yig‘indisi, ularning salohiyatini tan oladi, inson va bilim o‘lchovlarini birlashtiradi hamda amalga oshiradi.

Aqli kuch xalqaro munosabatlarda tashqi siyosat maqsadlariga erishish uchun qattiq kuch (harbiy kuch va majburlash) va yumshoq kuch (madaniy, iqtisodiy va diplomatik ta’sir) ni birlashtirgan tushunchadir. Aqilli kuchning muvaffaqiyati ta’sir ko‘rsatilayotgan obyekt subyektni qanday qabul qilishiga bog‘liq. Davlat tashqi siyosatda aniq harakatlarni amalga oshirish uchun xalqaro munosabatlarning boshqa subyektlari uni qanday qabul qilishlarini bashoratlash juda muhim.

²⁴ Markos Kounalakis and Andras Simonyi, The Hard Truth About Soft Power. P. – 10. Figueroa Press. Los Angeles. August 2011.

²⁵ Hubertus Hoffmann, President of The World Security Network. “Codes of tolerance as soft factors of peace-making”, at the Conference “Hard Vs. Soft Power: Foreign Policy Strategies in Contemporary International Relations”, Academy for Cultural Diplomacy (org), Cambridge University, June 2010.

²⁶ Rocha Brito, Brígida. Hard, soft or smart power: conceptual discussion or strategic definition?, e-journal of International Relations, vol. 1, núm. 1., 01.12.2010. pp. 112–114.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, aqli kuch tushunchasi xalqaro munosabatlardagi turli vositalarning o‘zaro bog‘liqligini tan oladi. Qattiq va yumshoq kuch elementlarini strategik jihatdan birlashtirib, mamlakatlar global sahnada o‘z manfaatlarini yanada samarali va barqaror tarzda amalga oshirishlari mumkin. Shuningdek, aqli kuchning ilmiy akademik muhokamasi ushu konsepsiyaning turli jihatlarini o‘rgangan taniqli olimlarning asarlariga tayanishni o‘z ichiga oladi. Ularning ilmiy xulosalaridan foydalanish xalqaro munosabatlardagi o‘zaro bog‘liq jarayonlarni chuqur o‘rganish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Umumiy qilib aytganda bu ilmiy farazlar hokimiyat kontekstining muhimligini ta’kidlaydi. Bir kontekstda “aqli” bo‘lgan narsa boshqasida aqli bo‘lmasi mumkin. Kuch vositalarining har biri o‘z jadvaliga ega – yumshoq kuch ko‘pincha ishslash uchun ko‘p yillar talab qiladi, qattiq kuch esa bir lahzada sodir bo‘lishi mumkin, misol uchun havo hujumi. Yumshoq va qattiq kuchni samarali birlashtirish ularning o‘zaro aloqalarini, shuningdek, o‘ziga xosligini tan olishni anglatadi. Shu sababdan aqli kuch vaqt va geografiyaning imperativlari asosida strategiyaning oqilona bo‘lishini aniqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Akçadağ, E. (2007, S. 7-11). ABD’nin Kamu Diplomasisi Stratejisi : Akıllı Güçü. Kamu Diplomasisi Enstitüsü Araştırmacısı. CSIS Commission on Smart Power:A Smarter More Secure America.,
2. Barnett & Weiss. (2008.). Humanitarianism in Question: Politics, Power, Ethics. Edited by Michael Barnett and Thomas G. Weiss. https://www.researchgate.net/publication/269943571_Humanitarianism_in_Question, ctp. Ithaca, NY: Cornell University Press, 320 p.
3. Bill Paker. (6.d.). at the Conference “Hard Vs. Soft Power: Foreign Policy Strategies in Contemporary International Relations”, . “The role of military force in the modern world” . London: Professor at Kings College London, who presented, Academy for Cultural Diplomacy (org),.
4. Brito, B. (2010). "Hard, soft or smart power: conceptual discussion or strategic definition?". Notes and Reflections, JANUS.NET e-journal of International Relations, N.º 1, Autumn 2010. Consulted [online] on date of last visit, observare.ual.pt/janu.
5. Cull, N. J. (1995). "Public Diplomacy: Lessons from the Past".
6. Dodd, P. (June 2010). “A soft power constellation: China, US and India in the 21st century” . at the Conference “Hard Vs. Soft Power: Foreign Policy Strategies in Conteporary International Relations” (ctp. London). University of the Arts London, and a participant who presented: Academy for Cultural Diplomacy (org) Cambridge University
7. Hubertus Hoffmann, P. o. (June 2010.). at the Conference “Hard Vs. Soft Power: Foreign Policy Strategies in Contemporary International Relations”. “Codes of tolerance as soft factors of peace-making”. London: Academy for Cultural Diplomacy (org), Cambridge University, .
8. Ilan., G. (05.29.2008). It’s Time to Stop Talking About Soft Power. The American Prospect. <https://prospect.org/article/time-stop-talking-soft-power/>. The American Prospect. <https://prospect.org/article/time-stop-talking-soft-power/>, 30-42.
9. Jack McConnell, f. P. (June 2010.). “Hard Vs. Soft Power: Foreign Policy Strategies in Contemporary International Relations”. who presented the paper” Peacekeeping or

- Peacebuilding: shifting the balance?". London: Academy for Cultural Diplomacy (org), Cambridge University, .
10. Keohane, Gilpin. . (1987.). "The Political Economy of International Relations" .
11. Markos Kounalakis and Ambassador Andras Simonyi. (August 2011.). The Hard Truth About Soft Power. . Figueiroa Press. Los Angeles. : S. – 10.
12. Nye, J. (2006,). "Soft Power: The Means to Success in World Politics". 2004.
13. Nye, J. (2011.). "The Future of Power" .
14. Nye, J. (2023.04.27). Get Smart: Combining Hard and Soft Power. Foreign Affairs. DOI - 10.1007/978-981-99-0714-4_8
https://www.researchgate.net/publication/370311554_Get_Smart_Combining_Hard_and_Soft_Power, pp - 63-66.
15. Nye, J. S. (2006). "In Mideast, the Goal is 'Smart Power'.". The Boston Globe, August 19, 2006. Boston Globe., 50-62.
16. Rid., T. (2013). "Cyber War Will Not Take Place" .
27. Robert O. Keohane, J.S. Nye (1984, 2004). "Neorealism and Its Critics" "Soft Power: The Means to Success in World Politics".
18. Rocha Brito, B. (01.12.2010). Hard, Soft or Smart Power: Conceptual discussion or Strategic definition? e-journal of International Relations, vol. 1, núm. 1, pp. 112–114.
19. Stephen M. Walt., The Origins of Alliances., Cornell Studies in Security Affairs. 1987
<https://www.jstor.org/action/doBasicSearch?Query=rt%3A%22The+Origins+of+Alliances%22>
20. Лепин, С. (2018). Высшее образование как инструмент «мягкой силы» России и Китая: . дис. ... кан. полит. наук. – М., , С. 98.
21. Diehl, Paul F., ed., 2005. War (Sage Library of International Relations). London: Sage. xxxviii + 2536 pp. ISBN. DOI - 10.1177/00223433070440020703, JO - Journal of Peace Research - J PEACE RES
22. James N. Rosenau., Governance without Government Order and Change in World Politics. Cambridge University Press. Online publication date: October 2009. Print publication year:1992
23. Anne-Marie Slaughter. A New World Order. Copyright Date: 2004. Published by: Princeton University Press Pages: 368. <https://www.jstor.org/stable/j.ctt7rqxg>
24. John Gerard Ruggie Multilateralism: the anatomy of an institution. Published online by Cambridge University Press: 22 May 2009. International Organization , Volume 46 , Issue 3 , Summer 1992 , pp. 561 – 598 <https://doi.org/10.1017/S0020818300027831>